

**YODGOR NASRIDINOVA – MURAKKAB DAVR
SINOVLARIDA TOBLANGAN O'ZBEK AYOLI**

Mamuraliyeva Gulsanam Ilhomjon qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tarixida o'ziga xos iz qoldirgan, sobiq tuzum davrida xalqimiz orasidan yetishib chiqqan birinchi rahbar ayol – Yodgor Nasriddinovaning murakkab hayot yo'li va faoliyati haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Sobiq tuzum, O'zbekiston SSR, Yodgor Nasriddinova, injenerlik faoliyati, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi raisi, “Qayta qurish”, “Izvestiya” gazetasi.

Inson ega bo'lgan narsalar ichida eng bebahosi – dini va Vatanidir. Biror inson yo'qki, Vatanini ulug'lamasa. Chunki, Vatan uning kindik qoni to'kilgan, go'daklik chog'i o'tgan, ilk qadamlarini qo'ygan, yoshlik, keksalik davrlarini surgan, xotiralari muhrlangan, ota-bobolarining yurti, farzandu nabiralari ulg'aygan zamindir!

Mitti chumolini ko'ring, rizq talabida qancha joylarga boradi, tepaliklarga qiynalib chiqadi. Bu ham o'z iniga – Vataniga qaytadi.

Ba'zi hayvonlar asl Vatanidan boshqa joyga ko'chirilsa nobud bo'lib qoladi. Ko'ryapsizmi, hamma hazrati insondan tortib mayda hasharotlarga o'z Vatanini sevadilar. Demak, bu mavjudotlardagi Allohning odati, chiqargan qonuni! Uni inson fitratiga Alloh solib qo'ydi. Bo'lmasa harorati oltmishga yetadigan issiq joylarda yoki harorat noldan past bo'lgan shimoliy qutblarda yoxud o'rmonlarda, har kun hayot uchun xavfli yerlarda ularni yashashga nima majbur qiladi?! Ularni bunga undagan narsa faqatgina Vatanlariga bo'lgan muhabbatdir.

Haqiqatda inson qiynalsa-da o‘z Vatanida boshqa joyga qaraganda xotirjam, hur yashaydi. “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l”, hikmati ham bejiz aytilmagan. Kambag‘al inson o‘z yurtida podshohlar kabi hayot kechiradi. Hikmatlarda: “Kishining rizqi o‘z vatanida bo‘lishi saodatdir”, deyilgan.

Imom Shofe‘iy (rahmatullohi alayh): “Insonning xoru zor bo‘lishi uchun Vatani va yaqinlaridan ayrilishning o‘zi kifoya!”, deganlar.

Vatanni-ku qo‘ying, inson o‘ziga tegishli bir qarich yerni ham birovga bergisi kelmaydi. Mo‘min-musumon Vatani sarhadlariga hujum qilinganini ko‘rsa, himoyaga shaylanadi. Kerak bo‘lsa, uning yo‘lida jonini qurbon qiladi. Yovga Vatanning bir hovuch tuprog‘ini ham berib qo‘ymaydi. Shunday Vataniga tog‘larcha mehr qo‘gan buyuk davlat arbobi, Yodgor Nasriddinova.

Yodgor Nasriddinova, 1926-yil 20-dekabrda SSSR O‘zbekiston SSRning Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahrida tavallud topgan. Otasi yuk tashuvchi bo‘lib mehnat qilgan va qizi tug‘ilishidan 3 oy oldin vafot etgan, 13 yoshli onasi esa unga Yodgor deb ism qo‘ygan. Erining bevaqt o‘limidan keyin onasi qizini olib, turmush o‘rtog‘ining uyidan 50 km uzoqlikdagi boshqa bir qishloqdagi ota uyiga ketishga va ikkinchi marta turmushga chiqishga majbur bo‘ladi [1].

6 yoshida o‘gay otasi Yodgorni yo‘l chetiga tashlab ketadi, va uni xayrixoh yo‘lovchilar o‘zlari bilan olib ketishadi. Shundan keyin Nasriddinova 11 yoshga qadar turli oilalar qaramog‘ida voyaga yetadi. 1931-yilda O‘zbekistonda birinchi mehribonlik uyi qurilgach, Nasriddinova uy qaramog‘iga beriladi va keyinchalik o‘sha yerdan kasb-hunar bilim yurtiga o‘qishga yuboriladi. 1941-yilda Nasriddinova Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari institutini tamomlaydi.

Nasriddinova 1941-yil oktabr oyidan boshlab Toshkent temir yo‘liga muhandis bo‘lib ishga kiradi va bir vaqtning o‘zida institutning aspiranturasida ham o‘qishini davom ettiradi. Kattaqo‘rg‘on suv ombori loyihasida usta bo‘lib ishlaydi va keyingi yili Toshkent va Angren o‘rtasidagi temir yo‘l qurilishi brigadasini boshqaradi. Yodgor ushbu muassasalarda rahbarlik lavozimida

ishlagan yagona ayol edi. Bu yerda u O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Usmon Yusupov bilan uchrashdi va uni Toshkentga Lenin Kommunistik Yoshlar Ittifoqi Markaziy Qo‘mitasi kotibi lavozimiga o‘tkazdi.

1942-yil fevraldan – 1946-yil yanvargacha O‘zbekiston Komsomoli Markaziy Qo‘mitasining maktablar bo‘yicha kotibi bo‘lib faoliyat yuritayotgan vaqtda urush faxriysi, viloyat partiya qo‘mitasi kotibi, keyinchalik O‘zbekiston kasaba uyushmalari raisi Siroj Nuritdinovga turmushga chiqadi. O‘sha paytda Siroj Nuritdinov va Yodgor Nasriddinova Sharof Rashidovning siyosiy raqiblari hisoblanishgan [2].

Yodgor Nasriddinova 1946-yil yanvarda O‘zbekiston Komsomoli Toshkent viloyat qo‘mitasining 1-kotibi etib tayinlanadi va ushbu lavozimda 1948-yil mart oyigacha faoliyat olib boradi. Keyinchalik 1948-yil martdan 1950-yil oktyabrgacha – O‘zbekiston Komsomoli Markaziy Komitetining 2-kotibi, 1950-yil oktyabrdan 1952-yil maygacha – Toshkent shahar O‘zbekiston Kompartiyasi Kirov tuman qo‘mitasining 1-kotibi, 1952-yil maydan 1955-yil fevraligacha – O‘zbekiston SSR qurilish materiallari sanoati vaziri bo‘lgan.

1955-yil fevralda O‘zbekiston SSR Vazirlar Soveti Raisining o‘rinbosari etib tayinlangach, Yodgor Nasriddinova va Sharof Rashidov o‘rtasida ziddiyat keskinlashadi. 1969-yilgi etnik tartibsizlikdan keyin Rashidov Nasriddinova va uning tarafdorlarini zo‘ravonlik va tartibsizlikda ayblab, uni mamlakatdan quvib chiqarishga harakat qiladi. O‘z navbatida Nasriddinovaning fraksiyasi ham Rashidovga qarshi ayblovlarni qo‘yadi. Yuzaga kelgan ushbu vaziyat natijasida Nasriddinova tez orada mamlakatni tark etishga majbur bo‘ladi [2].

Keyingi yillarda Yodgor mehribonlik uylari ochdi, evakuatsiya qilinganlarni joylashtirdi, ovqatlantirdi, kiyintirdi, tashkilotchilik qobiliyati bilan erkak hamkasblarini lol qoldirdi. 1959-yilda Sharof Rashidov o‘rniga O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi raisi etib tayinlandi. U O‘zbekistonda bunday lavozimni egallagan birinchi va yagona ayol bo‘ldi. Yodgor Nasriddinova o‘z ishiga shu qadar usta ediki, hatto bir marta Rashidov shunday degan: “Biz,

erkaklar, bu masalani hal qila olmaymiz. Yodgor Sodiqovnaga ishonib topshiring” [1].

Yodgor Nasriddinova 1970-yil 14-iyuldan 1974-yil 16-iyungacha (4 yil) SSSR Oliy Soveti Millatlar Kengashining raisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. U mamlakatni tark etgach, Rashidov o‘ziga xayrixoh homiylar yordamida faoliyat tarmoqlarini kengaytira boshlaydi, oila a‘zolari va yaqin qarindoshlarini davlatning yuqori lavozimlariga qo‘yib, o‘z hokimiyatini yanada mustahkamlashga erishadi. 1970-yillarda Yodgor Nasriddinova mamlakatda Sharof Rashidovdan keyingi ikkinchi shaxs bo‘lgan, biroq siyosiy intrigalar va “Paxta ishi” tufayli siyosatchining karyerasi qanchalik tez sur‘atlarda o‘sgan bo‘lsa, shuncha tez quladi.

Yodgor Nasriddinova 1974–1979-yillarda – SSSR qurilish materiallari sanoati vazirining o‘rinbosari, Osiyo va Afrika ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi lavozimlarida xizmat qiladi. Mehnat faoliyati davomida qrimtatar xalqi uchun Qrimga qaytish huquqini berish fikriga jiddiy qarshilik ko‘rsatib, O‘zbekiston SSRda bo‘lib o‘tgan qrimtatar fuqarolik huquqlari faollari bilan uchrashuvda ularning ishchi kuchiga muhtojligi tufayli Qrimga qaytishiga qarshi ekanligini ochiq bayon etadi.

“Qayta qurish” Yodgorni hayotiy qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. Unga nisbatan poraxo‘rlik ishi ochilib, 2,5 yil davomida so‘roq qilingan. 1988-yilda “Izvestiya” gazetasi “Paxta ishi” fonida Arkadiy Saxninning Yodgor Nasriddinovaning poraxo‘rlik va firibgarligi haqidagi “Korrupsiya” nomli maqolasi maqolasini chop etdi. Maqolada siyosatchi amnistiya to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha 23 mln rubl evaziga pora olgani aytilgan.

Shuningdek, Nasriddinova Brejnev davrida “Paxta ishi” da poraxo‘rlikda ayblanadi va 1988-yil 18-noyabrda KPSS (Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasi) a‘zolidan chiqariladi. 1991-yil 3-aprelda esa unga qo‘yilgan ayblovlarning tasdiqlanmaganligi natijasida KPSS a‘ziligiga qayta tiklanadi. Oradan bir yil o‘tib Yodgorga jinoyat tarkibi yo‘qligi sababli ish to‘xtatilgani haqida xat keladi. Tergov jarayonida u bir necha bor miokard infarktini boshdan kechirdi, qizi og‘ir

qon tomir kasalligi bilan reanimatsiyaga yotqizildi, o'g'li esa tuhmatga chiday olmay 42 yoshida vafot etdi [1].

Shundan so'ng Yodgorga xatlar yog'di, ularda odamlar soxta xatlarga imzo chekishga majbur bo'lganliklarini tan olishdi. Shulardan biriga ko'ra, IIV xodimlari professor Guli Sulaymonovaga oila a'zolarining sog'lig'i bilan tahdid qilgani aytiladi.

Yodgor Nasriddinova "Izvestiya"da chop etilgan javob xatida shunday yozadi: "Karyeramga, boshimdan yog'dirishgan mukofot va sharaflariga la'natlar bo'lsin" [4]. Yodgor Nasriddinova 2006-yil 7-aprelda Moskvada vafot etadi va Kuntsevo qabristoniga dafn etiladi.

Yodgor Nasriddinovaning turmush o'rtog'i – Siroj Nuriddinov (1911–1966), O'zbekistonning atoqli davlat arbobi, Ikkinchi jahon urushi (1941–1945) qatnashchisi, podpolkovnik edi. 3 ta farzandi bor edi. O'g'li – Baxtiyor Nuriddinov (1947–1989), Qizi – Zulfiya Nuriddinova (1950 – 2019), Qizi – Lola Rustamova (1939 yilda tug'ilgan, hozirda hayot) [3].

Yodgor Nasriddinova to'rt marta Lenin ordeni (1948-yil 28-oktyabr; 1957-yil 11-noyabr; 1960-yil 3-iyul; 1970-yil 27-dekabr) bilan taqdirlangan. Shuningdek, "Oktabr Inqilobi" ordeni (1971); ikki marta "Mehnat Qizil Bayroq" ordeni; "Shon-sharaf belgisi" ordeni; "Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi" (1949-yil) va yana bir qancha medal va ordenlar bilan taqdirlangan [5].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, sobiq tuzum o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirgan 1950–1980-yillarda O'zbekiston SSRda ayol kishi bo'lsada bir qator rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan va oxir-oqibat mavjud tuzumning qabix siyosati natijasida tuhmat va bo'xtonlar yog'dirilgan ilk o'zbek rahbar ayollaridan biri – Yodgor Nasriddinovaning faoliyati qaysidir ma'noda bugungi kunimiz uchun o'rnak va xulosa qilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Norboyeva Zarinabonu. Sharqdagi birinchi parlament raisi yodgor nasriddinova haqida /
file:///C:/Users/user/Downloads/Norboyeva+Zarinabonu+92-95+CUSR.pdf

2. Yodgor Nasriddinova / https://uz.wikipedia.org/wiki/Yodgor_Nasriddinova
3. Yodgor Nasriddinova / https://uzpedia.uz/pedia/yodgor_nasriddinova
4. O‘zbekiston tarixidagi ilk kashshof ayollar /
<https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/08/they-were-the-first/>
5. Ядгар Садыковна Насриддинова /
https://ru.wikipedia.org/wiki/асриддинова,_Ядгар_Садыковна